



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 10 | pp. 102-108 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON SHIMOLIY HUDUDLARI OZIQ-OVQAT SANOATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR



Tleuov Niyetulla Raxmanovich

Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
i.f.f.d. (PhD)

E-mail: niyetullatleuov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning shimoliy hududlari, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati oziq-ovqat sanoatining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilib, ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar ochib berilgan. Tarmoq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi omillar hamda oziq-ovqat sanoati samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki omillar batafsil ochib berilgan. Shuningdek, mamlakat shimoliy hududlarida oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: shimoliy hududlar, oziq-ovqat sanoati, ichki va tashqi omillar, oziq-ovqat xavfsizligi, xom ashyo bazasi, oziq-ovqat mahsulotlari.

Аннотация. В данной статье изучены особенности пищевой промышленности северных регионов Узбекистана, в частности Республики Каракалпакстан и Хорезмской области, выявлены факторы, влияющие на их развитие. Подробно раскрыты внешние факторы, которые могут негативно повлиять на развитие отрасли, а также внутренние факторы, влияющие на эффективность пищевой промышленности. Также разработаны предложения по дальнейшему развитию пищевой промышленности в северных регионах страны.

Ключевые слова: северные регионы, пищевая промышленность, внутренние и внешние факторы, продовольственная безопасность, сырьевая база, продукты питания.

Annotation. In this article, the features of the food industry of the northern regions of Uzbekistan, in particular the Republic of Karakalpakstan and Khorezm region, are studied, and the factors influencing their development are revealed. External factors that can negatively affect the development of the industry, as well as internal factors affecting the efficiency of the food industry, are revealed in detail. Proposals for the further development of the food industry in the northern regions of the country have also been developed.

Key words: northern regions, food industry, internal and external factors, food security, raw material base, food products.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning yuqori sur'atlarda oshib borishi ularni ishlab chiqarish hajmlarining yetarli darajada o'smasligi bilan mutanosib kelmayapti. Global geosiyosiy beqarorlik, pandemiya oqibatlari, iqlim o'zgarishlari, inflyatsiyaning kuchayishi va mehnat bozorida nomutanosibliklar natijasida xalqaro maydonda oziq-ovqat yetishmovchiligi yanada keskinlashib, 690-780 milliondan ortiq insonlar turli darajada ochlik xavfiga duch kelmoqda [9]. Aholi orasida ochlikning hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani, xususan, uning 55 foizi Osiyoga, 38 foizi Afrikaga, 6 foizi Lotin Amerikasi va Karib havzasiga, qolgan qismi esa Shimoliy Amerika, Yevropa va Okeaniya davlatlariga to'g'ri kelayotgani mazkur muammoning global tabiatga egaligini ko'rsatadi [10].

Bunday sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va bozorning barqarorligini saqlash har bir davlatning ustuvor strategik vazifasiga aylangan. Ushbu vazifalarning amaliy yechimi sifatida oziq-ovqat sanoatini, shu jumladan, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, samaradorligini oshirish va tashqi tahdidlarga chidamliligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat sanoati rivojlanishi nafaqat aholining asosiy iste'mol tovarlari bilan barqaror ta'minlanishini kafolatlaydi, balki iqtisodiyotning yuqori daromad keltiruvchi sohasi sifatida bandlikni oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat bozori strategik ahamiyatga ega bo'lib, Xitoy, AQSH, Italiya, Germaniya, Kanada va Rossiya kabi davlatlarning ushbu tarmoqdan milliardlab dollarlik daromad olishi, millionlab ish o'rinlari yaratilishi mazkur sohaning iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi.

Mazkur global jarayonlar O'zbekiston shimoliy hududlari uchun ham dolzarbdir. Ushbu hududlarda oziq-ovqat sanoatini samarali tashkil etish, tabiiy-iqlim sharoitidan to'g'ri foydalanish, logistika va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish, resurslardan tejamkor foydalanish, shuningdek, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur zaxiralarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shimoliy hududlarning (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) o'ziga xos agroiklimiy imkoniyatlari, meva-sabzavotchilik, chorvachilik va baliqchilik uchun qulay tabiiy sharoitlar mavjudligi – oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining barqaror rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'la oladi.

Shu bois, global oziq-ovqat muammolari fonida shimoliy hududlar oziq-ovqat sanoatining xususiyatlarini chuqur o'rganish va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Oziq-ovqat sanoati boshqa sanoat tarmoqlaridan farq qiluvchi eng muhim jihatlardan biri – uning inson hayoti, sog'lig'i va mehnatga layoqatiga bevosita ta'sir etuvchi strategik mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liqligidir [1].

M.Tretyakov va Y.Gnatovskaya kabi iqtisodchi olimlar ta'kidlashicha, oziq-ovqat sanoati davlatning butun oziq-ovqat tizimi ichida markaziy bo'g'in bo'lib, aholining yetarli, to'g'ri va muvozanatli ovqatlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [2].

Oziq-ovqat sanoatining o'ziga xosligi shundan iboratki, u boshqa ko'plab tarmoqlarga nisbatan ko'proq qishloq xo'jaligi sektori bilan chambarchas bog'langan.

Ushbu tarmoqda asosiy resurs bo'lmish xom ashyo ulushining katta qismi aynan qishloq xo'jaligidan olinadi [3]. Shu bilan birga, oziq-ovqat sanoati faqat agrar resurslarga tayanuvchi tizim bo'lib qolmay, balki makroiqtisodiy jarayonlarga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, aholi turmush madaniyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi [4].

So'nggi yillarda global savdo hajmlarining kengayishi natijasida jahon miqyosida oziq-ovqat iste'moli aholining o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq ortib bormoqda. Jon boshiga iste'molning ortishi bir qator omillar bilan izohlanadi [5]: daromadlarning ko'payishi, sog'lom turmush tarziga qiziqishning kuchayishi, ekologik madaniyatning o'sishi, iqlim o'zgarishiga nisbatan iste'molchilar ongining o'sishi shular jumlasidandir.

Oziq-ovqat sanoatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan ko'plab iqtisodchi olimlar uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib kelganlar. Masalan, Ye.Shetin va Ye.Nazrullayevalarning fikricha, tarmoqning rivojlanish samaradorligi birinchi navbatda ishlab chiqarishning tashkiliy jihatlariga bog'liq bo'lib, yirik korxonalar kichik korxonalariga nisbatan yuqori rentabellik ko'rsatadi. Shuningdek, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi oshgan sayin korxonalar faoliyati barqarorlashadi va texnologik modernizatsiya jarayonlari tezlashadi [6].

Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi xom ashyo - korxonalar - bozor zanjirining optimal tashkil etilishiga, resurslardan oqilona foydalanishga va yordamchi infratuzilmalar (logistika, energetika, saqlash, transport, xizmatlar sektori)ning rivojlanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, O'zbekiston shimoliy hududlarida (Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati) korxonalarini optimal joylashtirish oziq-ovqat sanoati samaradorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki bu yerda xom ashyo bazasi, suv resurslari, meva-sabzavotchilik, chorvachilik va baliqchilik uchun qulay sharoit mavjud.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini joylashtirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat [7]:

- xom ashyo bazasi, energiya manbalari va asosiy iste'mol bozorlariga maksimal yaqinlik;
- hududlar ixtisoslashuvini oshirish, tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlardan to'liq foydalanish;
- respublika hududlari bo'yicha iqtisodiy sharoitlarni maksimal tenglashtirish;
- logistika va transport xarajatlarini qisqartirish;
- hududning demografik tarkibi va mehnat resurslari salohiyatidan to'liq foydalanish.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish boshqa sanoat tarmoqlariga nisbatan bir qator o'ziga xos funksional xususiyatlarga ega [8]:

- 1) Xom ashyo talabining yuqoriligi – ishlab chiqarish jarayonlari uchun katta hajmdagi qishloq xo'jaligi xom ashyolari zarur bo'ladi;
- 2) Ko'p bosqichli texnologik sikl – har bir bosqichda yarim tayyor mahsulotlar shakllanadi va keyingi bosqichlarning kirish resursiga aylanadi;
- 3) Xom ashyo chiqindilarining mavjudligi – ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladigan qoldiqlarni qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish rejaga kiritilishi zarur;
- 4) Texnologik siklning qisqaligi – bu holat ishlab chiqarish jarayonlarini, xom ashyo xaridlarini va logistika operatsiyalarini operativ boshqarishni talab qiladi.

Mazkur jarayonlarning murakkabligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari bilan belgilanadi va O'zbekiston shimoliy hududlarida ushbu tarmoqni rivojlantirishda alohida e'tibor talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, O'zbekiston shimoliy mintaqalari iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilinib, ularni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning najariy qarashlari o'rganilgan. Bundan tashqari, shimoliy mintaqalar oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning nazariy jihatlari bayon etilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligi bilan eng kuchli bog'langan tarmoqlardan biri hisoblanadi. 2024-yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari hajmi 467 041,5 mlrd so'mni tashkil etib, 103,1 % o'sish qayd etilgan. Bu tarmoq oziq-ovqat sanoati xomashyo bazasining asosiy manbai bo'lib, xususan shimoliy hududlarda qayta ishlash sanoatini rivojlantirish uchun tabiiy ustunlik yaratadi.

Shimoliy hududlar bo'yicha tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligining yuqori ulushi va demografik salohiyat oziq-ovqat sanoati uchun tabiiy omil sifatida ajralib turadi. Masalan, 2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida YAHM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 23,5 %ni tashkil qilib, tarmoqda 103,6 % o'sishga erishilgan. Bu ko'rsatkichlar hududda oziq-ovqat sanoati uchun barqaror xomashyo manbai mavjudligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, 2024-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida sanoat tarmog'ida 106,8 %, xizmatlar sohasida 107,3 %, qurilishda 107,4 % o'sish kuzatilgan bo'lib, umumiy YAHM 45658,5 mlrd so'mga yetgan.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM esa 22645,8 ming so'mni tashkil etib, 4,9 %ga oshgan. Bu aholi daromadlarining o'sishi bilan birga oziq-ovqat iste'molining ko'payishini ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Oziq-ovqat sanoati rivojiga ta'sir etuvchi tashkiliy omillar qatorida korxonalarining optimal joylashuvi, xom ashyo manbalariga yaqinligi va logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasi muhim ahamiyatga ega. Bu nuqtai nazardan shimoliy hududlarda - Qoraqalpog'istonda Amudaryo deltasi, baliq xo'jaliklarining kengligi va Xorazmdagi bog'dorchilik-polizchilik salohiyati oziq-ovqat sanoati uchun eng qimmat resurslar hisoblanadi.

2024-yil mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 493652 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu 127,6 % o'sish demakdir. Investitsiya oqimining oshishi oziq-ovqat sanoatida qayta ishlash, qadoqlash, muzlatish va logistika infratuzilmasini yangilash imkoniyatlarini kuchaytirmoqda.

Oziq-ovqat sanoati texnologik jihatdan o'ziga xos bo'lib, katta hajmdagi xomashyo talab qilish, ko'p bosqichli ishlab chiqarish, tez buziladigan mahsulotlar bilan ishlash, qisqa texnologik sikl kabi xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar shimoliy hududlarda ayniqsa sezilarli, chunki mazkur hududlarda meva-sabzavot, poliz mahsulotlari, baliq va

sut mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari mavsumiy va logistik muammolarga tez ta'sirchandır.

2024-yil statistikasiga ko'ra, mamlakatda qayta ishlash sanoatida 7,7 % o'sish qayd etilgani, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ulushining oshib borayotganini anglatadi.

Shuningdek, xizmatlar sohasidagi o'sish (107,3 %) oziq-ovqat sanoati logistikasi, savdo tarmoqlari, ombor-saqlash xizmatlari va transport infratuzilmasining kengayishi bilan bevosita bog'liq. Bu esa mahsulotlarni bozorga tez yetkazish imkoniyatini yaxshilab, korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi.

Umuman olganda, 2024-yil statistik ma'lumotlari asosida O'zbekistonning shimoliy hududlarida oziq-ovqat sanoati rivojlanishining asosiy omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi yuqori ulushi (Qoraqalpog'istonda 23,5 %);
- sanoat va xizmatlar tarmoqlarining barqaror o'sishi (106,8-107,3 %);
- investitsiyalarning keskin oshishi (127,6 %);
- demografik salohiyat va mehnat resurslarining ko'pligi;
- logistik infratuzilmaning yaxshilanishi;
- aholi daromadlarining o'sishi – oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining ko'payishiga olib keluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ushbu omillar shimoliy hududlarning oziq-ovqat sanoatida eksportga yo'naltirilgan qayta ishlash klasterlarini rivojlantirish, yangi quvvatlar yaratish va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish uchun mustahkam iqtisodiy baza hosil qilmoqda.

Oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar o'z tabiatiga ko'ra, tarmoq faoliyatini ham faollashtirishi, ham cheklash xususiyatiga ega. Ayniqsa, O'zbekistonning shimoliy hududlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligiga yuqori darajada bog'liq bo'lgani sababli, ushbu omillarning ta'siri yanada sezilarli namoyon bo'ladi.

Tarmoq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi omillar quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy omillar: inflyatsiya darajasining oshishi, aholining xarid qobiliyatidagi o'zgarishlar, bozor konyunkturasidagi keskin siljishlar, import narxlarining ko'tarilishidir. Jumladan, 2024-yilda mamlakatda iste'mol narxleri indeksi 109,8 % bo'lgani oziq-ovqat sanoati xarajatlari oshishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi;

2. Ijtimoiy omillar: aholi sonining o'sishi, migratsiya jarayonlari, iste'mol madaniyati va talab strukturasiidagi o'zgarishlardir. 2024-yilda O'zbekiston aholisi 37,17 mln kishiga yetgani oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va talabining yuqori sur'atlarda ortganini anglatadi;

3. Institusional omillar: standartlar, sertifikatsiya, bojxona va soliq qoidalaridagi o'zgarishlar, tashqi savdodagi cheklovlar;

4. Tabiiy-iqlim omillari: Qoraqalpog'iston va Xorazmdagi qurg'oqchilik, suv ta'minotidagi cheklovlar, iqlim isishi va hosildorlikdagi o'zgarishlar. Bu holat oziq-ovqat sanoati uchun zarur xom ashyo bazasining barqarorligiga xavf soladi;

5. Ekologik omillar: suv va tuproq resurslarining degradatsiyasi, Orolbo'yi ekologik tizimidagi muammolar, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi yetarli emasligi kabilar hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati samaradorligiga ta'sir etuvchi ichki omillar sifatida esa quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Logistika muammolari: mahsulotlarni saqlash, muzlatish, qadoqlash va uzoq masofaga yetkazib berish infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Shimoliy hududlarda, ayniqsa Qoraqalpog'istonda transport uzellarining yetarli emasligi mahsulotlarni bozorga tez va sifatli yetkazishga to'sqinlik qiladi;

2. Tashkiliy omillar: korxonalarda boshqaruv, resurslardan foydalanish, texnologik modernizatsiya, kadrlar malakasi yetarlicha emasligi tarmoq rivojiga salbiy ta'sir qiladi;

3. Ijtimoiy omillar: mehnat resurslarining migratsiyasi, aholining muayyan hududlarda to'planishi, ishchi kuchining mavsimiyliги va h.k.

Xulosa va takliflar

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish yoki butunlay bartaraf etish orqali oziq-ovqat sanoati barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Buning uchun quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

1) Talabning o'sishini rag'batlantirish. Aholining daromadlarini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini barqaror qo'llab-quvvatlash tarmoq rivojiga musbat ta'sir ko'rsatadi;

2) Investitsiyalarni keng jalb qilish. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 27,6 %ga o'sishi oziq-ovqat sanoatida qo'shimcha quvvatlar, yangi korxonalar, muzlatish va qayta ishlash infratuzilmasini yaratish uchun katta imkoniyatlar ochadi;

3) Soliq va bojxona tariflarini optimallashtirish. Qayta ishlash korxonalariga imtiyozlar berish, eksport uchun qulay shartlarni yaratish tarmoq raqobatbardoshligini oshiradi;

4) Mavjud xomashyo bazasini rivojlantirish va kengaytirish. Qoraqalpog'istonda baliqchilik va chorvachilik hamda Xorazmda meva-sabzavot, poliz mahsulotlari va bog'dorchilikni rivojlantirish uchun investitsiya kiritilishi oziq-ovqat sanoati uchun barqaror ta'minot zanjiri yaratadi;

5) Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy qayta ishlash liniyalari, muzlatish kameralari, standartlashtirilgan qadoqlash texnologiyalari mahsulot sifatini oshiradi, yo'qotishlarni kamaytiradi;

6) Texnik reglament va sifat standartlarini takomillashtirish. Xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

7) Yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish va bozorga chiqish. Qoraqalpog'iston baliq mahsulotlari, quritilgan qovun, sut mahsulotlari bilan, Xorazm meva-sabzavot konsentratlari, qadoqlangan mahsulotlar, tabiiy sharbatlar kabi yo'nalishlarda eksport uchun katta salohiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat sanoati rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ichki va tashqi omillarning mavjudligiga qaramay, ularni tizimli ravishda bartaraf etish yoki yumshatish orqali tarmoqda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Hududlarning tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi salohiyati, demografik imkonlari va investitsiya muhiti

shimoliy hududlarda oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шереметьева Е.Н., Фролова А.К. Особенности управления развитием бизнеса в отраслях пищевой промышленности // МЦНП «Новая наука». 2022. С.118
2. Третьяков М.М., Гнатовская Ю.С., Особенности государственного регулирования пищевой промышленности в условиях неоднородности территориального пространства Российской Федерации // Экономика и управление народным хозяйством. 2009. №1(12). С.71
3. Руденок М.П., Ефименко А.Г. Экономика предприятий отрасли. Часть 1. Учебно-методическое пособие. – Могилев: УО «МГУП», 2009. – 122 с.
4. Bozsik N, Cubillos T. JP, Stalbek B, Vasa L, Magda R (2022) Food security management in developing countries: Influence of economic factors on their food availability and access. PLoS ONE 17(7): e0271696. <https://doi.org/10.1371/journal.pone.0271696>
5. Тлеубердинова А.Т., Салибекова П.К. Пищевая промышленность страны как особый фактор продовольственной безопасности // «Тўран» университетинин хабаршысы» ғылыми журналы 2020 ж. №4(88), с.233
6. Щетинин Е.И., Назруллаева Е.Ю. Производственный процесс в пищевой промышленности: взаимосвязь инвестиций в основной капитал и технической эффективности // Прикладная Эконометрика. №4(28)2012. с.64
7. Производство продуктов питания. М.: Бюро НДТ. ИТС 44 – 2017. С.13. <https://journal.ecostandard.ru>
8. Жукова Ю.С. Учет особенностей пищевой промышленности в процессе бизнес-планирования // Вестник Вятского ГАТУ. №2, 2019. С.4. <https://v-vgsha.info>
9. FAO data. https://www.fao.org/3/cc8166en/online/cc8166en.html#chapter-3_1
10. FAO. 2023. Oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari to'plami. In:FAOSTAT. <https://www.fao.org/faostat/en/#data/FS>
11. <https://stat.uz>

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

